

XALQARO ARBITRAJ SUDLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Majidov Shoxrux Abdumalikovich

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universitetining

“Biznes huquqi” mutaxassisligi magistri

ANNOTATSIYA

Ushbu tezisda xalqaro arbitraj sudlarining tashkil topish tarixi, vazifalari va afzalliklari to‘g‘risida so‘z yuritilib, uning rivojlanish tendensiyalari yoritilib berilgan. Shunigdek, mazkur tezisda ayrim xalqaro arbitraj institutlarining ro‘yhati keltirilgan.

Kalit so‘zlar: xalqaro arbitraj sudi, xalqaro tijorat arbitraji, hakamlik sudi, xalqaro arbitraj institutlari, arbitr.

Arbitraj sudlari davlatlarning umumiy yurisdiksiya sudlaridan ancha avval vujudga kelgan bo‘lib, uning tarixi Qadimgi Rim davlatiga borib taqaladi. Dastavval hakamlik sudlari nizolashayotgan tomonlarning o‘z tashabbuslari bilan tuzilib, uning qarorlari ijrosini ham davlat aralashuvisiz mustaqil ravishda amalga oshirgan. Imperator Yustinian zamonida hakamlik qarorlari davlat kuchi – majburlovi orqali bajarilishi belgilangan. Arbitraj sudi deganda, savdo-iqtisodiy nizoni nizolashayotgan tomonlar tanlagan va kelishib vakolat bergan bir yoki bir necha jismoniy shaxslarning ko‘rib hal etishi, ular davlat sud tizimiga mansub bo‘lmasa-da, chiqargan qarorlari majburiy tarzda bajariladigan xolis organ nazarda tutiladi.

Xalqaro tijorat arbitrajining jadal rivojlanishining yangi bosqichi XVIII-XIX asrlarda xalqaro savdoning faol o‘sishi bilan boshlandi. Bu davrda dastlabki ko‘rinishdagi birinchi doimiy arbitraj institutlari shakllandi. 1912-yilda Xalqaro Savdo-sanoat palatalari kongressining Bostonda bo‘lib o‘tgan yig‘ilishida xalqaro sohada yuzaga keladigan nizolarni hal qilish uchun xalqaro-huquqiy normalarni yaratish zarurligini tan olgan rezolyutsiyani qabul qildi. Xalqaro arbitrajning rivojlanishidagi muhim qadam 1914-yil 10-iyunda Parijda Xalqaro savdo palatasining tashkil etilishi bo‘ldi.

“Tashqi savdo (xalqaro tijorat) arbitraji” atamasi birinchi marta 1961-yildagi Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risidagi Yevropa konvensiyasida o‘rnatilgan va keyinchalik bu 1985-yildagi Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risidagi UNCITRAL namunaviy qonunida mustahkamlangan. Xalqaro tijorat arbitraji tushunchasi haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lish uchun “arbitraj”, “xalqaro”, “tijorat” so‘zlari (xalqaro tijorat arbitrajidan) nimani anglatishini aniqlash zarur¹.

¹ Emerson F. D. History of arbitration practice and law //Clev. St. L. Rev. – 1970. – T. 19. – C. 155.

Arbitraj sudlarining davlat sudlaridan ajralib turadigan xarakterli belgilari uning mustaqilligi hamda sudyalar nizolashuvchi taraflar tomonidan erkin tanlanishidir. Ularning bu huquqlari hech bir protsessual qonunchilik normalari bilan cheklanmaydi.

Arbitraj sudlari nizolashuvchi tomonlarga katta erkinliklar beradi. Xalqaro arbitraj sudlarining afzalliklari juda ko'pdir. Birinchi sababi xalqaro arbitraj sudlari qarorlarining ijro etish masalasi xalqaro konvensiya bilan mustahkamlangan. Bundan tashqari biror bir davlatning umumiy yurisdiksiya sudlaridan mustaqil ekanligidir. Xususan, nizolashayotgan tomonlarning hech biri ikkinchi bir tomonning davlat sudlarida nizoni hal etishni istamaydi. Buning sababi, ikkinchi bir tomonning milliy sudi ustunligi va ularga yon bosishidan xavfsiraydi. Ana shunday holatda nizolarni hal etishda xalqaro arbitraj sudlari muhim rol o'ynaydi. Tomonlarning roziligi arbitrlarning nizolarni hal etishda eng muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Ayni paytda taraflarning kelishuvi orqali arbitrlarning nizoni ko'rib chiqishdagi vakolatlarini cheklashi mumkin. Xususan, arbitrlar bunday holatda faqat tomonlarning kelishuvidagi nizoli masala yuzasidan qaror qabul qila oladilar.

Tomonlar shartnoma tuzish jarayonida nizolarni hal etish usullarini kelishib oladilar. Xususan, shartnoma bandlariga nizolarni hal etish uchun arbitrajlariga taqdim etish qoidasi belgilab qo'yiladi. Ba'zi bir holatlarda shartnomalarda arbitraj izohi keltirilmaydi.

Arbitraj sudlarining yana bir afzalligiga protses va qabul qilinadigan qarorni maxfiy saqlay olishini misol qilsak bo'ladi. Maxfiylik ba'zi institutsional qoidalar orqali ta'minlanadi va taraflardan maxfiylik kelishuviga amal qilgan holda, maxfiylik taraflar kelishuvi orqali kengaytirilishi (masalan, guvohlar va ekspertlar qamrab olish uchun) mumkin. Ko'p kompaniyalar maxfiy jarayonlarni xohlashadi, chunki ular kompaniya va uning biznes operatsiyalari yoki ular ishtirok qiladigan nizolar haqidagi ma'lumotlar oshkor etilishini istashmaydi yoxud ular nizoning ehtimoliy salbiy oqibati ommaga ma'lum bo'lishini xohlamaydilar².

Arbitraj sudlarining yana bir xususiyati ularning xususiy ekanligidadir. Buning esa bir qancha o'ziga xos jihatlari bor. Xususan, arbitrlar hech qanday davlat mafkurasidan kelib chiqib nizolarni hal etmaydilar. Ular bor e'tiborlarini tomonlarning majburiyatlarini qanchalik bajarganligi yoki buzganlik masalalariga e'tibor qaratadilar. Arbitrlar kasb etikasi va tomonlar o'rtasidagi tenglikka rioya qilishga harakat qiladilar. Sababi, bu jihatlar keyinchalik ularning mavqeini yanada oshishiga sabab bo'ladi. Nizoni hal etishda qatnashadigan arbitrlar soni bitta yoki uchtani tashkil etadi. Uchta arbitrning ikkitasini taraflar tanlaydilar. Ikkita arbitr esa arbitrajga rahbarlik qilish uchun uchinchi arbitrni tanlaydilar. Arbitrlar har doim ham yuridik ma'lumotga ega

² Koritzinsky A. R., Welch Jr R. M., Schlissel S. W. The benefits of arbitration //Fam. Advoc. – 1991. – T. 14. – C. 45.

bo'lishi talab etilmaydi. Ba'zan nizo mazmuniga qarab, boshqa sohaning professional vakillari arbitrlar qilishlari mumkin.

Arbitraj sudlarining qarorlari majburiy va yakuniy kuchga ega bo'ladi. Tomonlar ko'pincha shu sababdan ham nizolarni arbitrajlarda hal etishni ma'qul ko'radilar. Bu esa o'z navbatida ortiqcha sarmoya va vaqtni sarf qilmaslikka sabab bo'ladi. Arbitraj qarorlari ustidan shikoyat qilishga juda ham kamdan kam holatlarda yo'l qo'yiladi. Umuman olganda qarorning asosiy mazmuniga nisbatan e'tiroz bildirish mumkin emas. Shu jihatlar ham arbitrajning eng muhim jihatlari sifatida baholanadi. Arbitrlar tomonidan arziyas va nizo mazmuniga ta'sir qilmaydigan protsessual xatolarga yo'l qo'yilganlik fakti ham ularni ijro etilishiga qarshilik qilmaydi. Qachonki, sud muhokamasi o'tkazish jarayonida qo'pol kamchiliklarga yo'l qo'yilsa yoki arbitr tomonidan nizo predmetidan chetga chiqish holatlari kuzatilsa, arbitrlar nizoga taalluqli masaladan chetga chiqqan holda qaror qabul qilsa, ushbu qarorlari ustidan Arbitraj joyidagi sudga murojaat qilishlari mumkindir.

Arbitraj qarori orqali majburiyat yuklatilgan tomonga ushbu majburiyatni bajarish uchun ixtiyoriy muddat beriladi. Agarda u ushbu ixtiyoriy muddat davomida o'ziga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmasa, yutgan tomon majburiyat bajaruvchining asosiy mol-mulki joylashgan hududdagi umumiy yurisdiksiya sudlariga chiqarilgan arbitraj qarorini tan olish va ijro etish bo'yicha murojaat qiladi. Uning ishi ushbu sudlar tomonidan ko'rib chiqilib, ijro etish harakatlari amalga oshiriladi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, 1958 yilgi Nyu-York konvensiyasida xalqaro arbitraj sudlarining qarorlarida protsessual kamchiliklar mavjud bo'lmaganida ularni ijro etish majburiy ekanligi belgilab qo'yilgan. Dastlabki vaqtlarda arbitraj sudlari tomonlar uchun nisbatan nizoni arzonroq va tezroq hal etish usuli hisoblangan, lekin xalqaro huquq va munosabatlar rivojlanib murakkablashib borgani sari arbitrajlariga to'lanadigan pul miqdori sezilarli darajda oshib, sud jarayoni murakkablashib bordi. Lekin u o'zining avvalgi mavqeini yo'qotmadi.

Xalqaro tijorat arbitrajlarini rivojlanib borgan sari xalqaro arbitraj institutlari vujudga kelib ular ham bir vaqtning o'zida rivojlanib bordi. Quyida xalqaro arbitraj institutlarining ro'yxati keltiriladi.

1. Amerika arbitraj assotsiatsiyasining nizolarni hal qilish xalqaro markazi (ICDR) – Amerika Arbitraj Assotsiatsiyasi (AAA) dunyodagi eng yirik arbitraj institutining xalqaro bo'limi hisoblanib, so'nggi besh yil ichida boshqa xalqaro institutlarga qaraganda 5 000 ta ko'proq ishlarni ko'rib chiqqan.

2. Xitoy xalqaro iqtisodiy va savdo arbitraj komissiyasi (CIETAC)³ – dunyodagi eng yirik doimiy arbitraj institutlaridan biri bo'lib, 1956-yil aprel oyida tashkil etilgan.

³ Русакова Е. П. Порядок рассмотрения финансовых споров в Китайской международной Торгово-Экономической арбитражной комиссии (China International Economic and Trade arbitration Commission-CIETAC) // Пробелы в российском законодательстве. Юридический журнал. – 2016. – №. 6. – С. 52-54.

3. Xalqaro Savdo Palatasi (ICC) – o‘z tarkibiga professional soha vakillaridan iborat kotibiyatiga ega institut.

4. Yaponiya tijorat arbitraj assotsiatsiyasi (JCAA)⁴ – kotibiyati turli tillarda faoliyat yuritadigan samarali va do‘stona obro‘ga ega institut.

5. Koreya tijorat arbitraj kengashi (KCAB)⁵ – 2018-yil 20-aprelda Koreya Tijorat Arbitraj Kengashining mustaqil bo‘linmasi sifatida transchegaraviy tijorat nizolarini hal qilish bo‘yicha ortib borayotgan talabni qondirish uchun tashkil etilgan.

6. London xalqaro arbitraj sudi (LCIA)⁶ – 1985-yilda tashkil etilgan bo‘lib, tijorat nizolarini hal qilish bo‘yicha dunyodagi yetakchi xalqaro arbitraj institutlardan biridir.

7. Gaagadagi doimiy arbitraj sudi (PCA) – asosan, davlatlar va davlat tashkilotlari o‘rtasida vujudga keladigan bitimlardan kelib chiqqan nizolarni ko‘radi.

8. Singapur xalqaro arbitraj markazi (SIAC) – Singapurda joylashgan notijorat xalqaro arbitraj tashkiloti bo‘lib, o‘z arbitraj qoidalari va UNCITRAL arbitraj qoidalari asosida arbitrajlarini boshqaradi.

9. Stokgolm Savdo Palatasining Arbitraj instituti (SCC)⁷ – bugungi kunda investitsiya nizolari bo‘yicha dunyodagi ikkinchi yirik institutdir.

10. Dubay xalqaro arbitraj markazi (DIAC) – Yaqin Sharqdagi eng yirik arbitraj markazi bo‘lib, u dastlab Dubay Savdo-sanoat palatasi (Dubay palatasi) tomonidan 1994-yilda Tijorat kelishuvlari va arbitraj markazi sifatida tashkil etilgan.

11. Avstriya Federal iqtisodiy palatasining Vena xalqaro arbitraj markazi (VIAC) – Yevropaning yetakchi arbitraj institutlaridan biri hisoblanadi. 2018-yildan boshlab u ilgari mintaqaviy arbitraj sudlari ixtiyorida bo‘lgan sof maishiy nizolarni hal qilishni ham o‘z zimmasiga oldi.

12. Eron-AQSh da‘volar tribunali (IUSCT) – 1979-yil noyabr oyida Eron Islom Respublikasi aktivlarining Amerika Qo‘shma Shtatlari tomonidan muzlatilishi, AQShning Tehrondagi elchixonasini garovga olish inqirozini hal qilish uchun tashkil topgan.

13. Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) – Arbitraj va vositachilik markazi.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro tijorat arbitraji instituti nizolarni muqobil hal qilish jarayonida tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi tadbirkorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun zaruriy huquqiy shart-sharoitlar yaratishga, tashqi iqtisodiy shartnomalardan kelib chiqadigan nizolarni ko‘rishda muddatlar va xarajatlarni qisqartirishni ta‘minlashga imkon yaratadi. Shuningdek, mamlakatimizga

⁴ Yaponiya tijorat arbitraj assotsiatsiyasi rasmiy veb sayti. Qarang: <https://www.jcaa.or.jp/en/>

⁵ Koreya tijorat arbitraj kengashining rasmiy veb sayti. Qarang http://www.kcabinternational.or.kr/common/index.do?jpath=/contents/sub0402&CURRENT_MENU_CODE=MENU0020&TOP_MENU_CODE=MENU0018

⁶ London xalqaro arbitraj sudining rasmiy veb sahifasi. Qarang: https://www.lcia.org/Dispute_Resolution_Services/LCIA_Arbitration.aspx

⁷ Stokgolm Savdo Palatasining Arbitraj institutining rasmiy veb sahifasi. Qarang: <https://sccinstitute.com>

chet el investorlarni yanada ko‘proq jalb etish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik tizimida xalqaro arbitraj sudlarining qarorlarini tan olish mexanizmini yagona hujjatga jamlagan holda normativ-huquqiy hujjatni qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

